
MUAYYAN YASHASH JOYIGA EGA BO'LMAGAN SHAXSLARNI REABILITATSIYA MARKAZIGA JOYLASHTIRISH TO'G'RISIDAGI ILTIMOSNOMALARNI KO'RIB CHIQISH VAKOLATINING JINOYAT ISHLARI BO'YICHA SUDLARGA O'TKAZILISHI - SUD-HUQUQ ISLOHOTLARINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA

Muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarni rehabilitatsiya markaziga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish vakolatining jinoyat ishlari bo'yicha sudlarga o'tkazilishi - sud-huquq islohotlarining tarkibiy qismi sifatida

O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 16 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" O'RQ-810-sonli Qonuni bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi"ga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilib, yangi XXIII2-bob bilan to'ldirildi.

Qonunga muvofiq, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxsni rehabilitatsiya markaziga joylashtirish to'g'risida ish yuritish tartibi kiritildi.

Qonun bilan Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarni rehabilitatsiya markaziga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqishga doir normalarini Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga o'tkazish hamda tegishli ishlarni ko'rib chiqishni ma'muriy sudlardan jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlariga o'tkazish belgilandi.

Unga ko'ra, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxsni rehabilitatsiya markaziga joylashtirish to'g'risida ish yuritish tartibi kiritildi.

Muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxsning rehabilitatsiya markaziga joylashtirilishini talab qiluvchi asoslar aniqlanganda, ichki ishlar organi bunday shaxs ichki ishlar organiga keltirilgandan e'tiboran 48 soatda uni rehabilitatsiya markaziga 30 sutkadan ko'p bo'lmagan muddatga joylashtirish to'g'risida sudga iltimosnoma yuborish uchun materiallarni tayyorlashi shart.

Muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxsni rehabilitatsiya markaziga joylashtirish to'g'risidagi materiallar bunday shaxs aniqlangan yerdagi yoki rehabilitatsiya markazi joylashgan yerdagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudiga ichki ishlar organi tomonidan beriladi.

Iltimosnoma taqdim etilgan paytdan e'tiboran 24 soat ichida sudya tomonidan yopiq sud majlisida yakka tartibda ko'rib chiqiladi.

Sherzod Madumarov - Jinoyat ishlari bo'yicha So'x tuman sudining raisi

Mo'minmirzo Sidiqov - Jinoyat ishlari bo'yicha So'x tuman sudining devonxona mudiri

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-01-13 10:58:35